

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD 26
2025 yil 29 avgust



**GEOGRAFIYANI O'QITISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR FANINING O'QUV DASTURI
(kunduzgi, kechki)**

Bilim sohasi:	100000 - Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi GO‘TT304		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 5	Kreditlar 4	
Fan/mavzu turi Tanlov fan		Ta‘lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar	60 (30/30)		60	120
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – Talablarga geografiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, ularning turlari va xususiyatlari va zamonaviy ta‘lim vositalari–ni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llariga oid bilimlar berishdir</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga fan va ta‘lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta‘lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish, geografiyadan darslarni kuzatish va tahlil qilish, mustaqil va ijodiy, tanqidiy-tahliliy fikr yuritish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan chiqishning muqobil variantini tanlay olish va uni baholash malakalariga ega bo‘lishi kerak.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>Geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo‘llari. Innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari.</p> <p>Geografiya ta‘limi mazmunining tarkibiy qismlari. Geografiya darslarida o‘quvchilarni to‘laqonli o‘quv – bilish jarayonining subyektiga aylantirish yo‘llari. O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bosqichlari. O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllari. Innovatsion texnologiyalarning mazmuni, ta‘riflari, qonuniyatlari. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari. Pedagogik texnologiyalarning ko‘rinishlari va darajalari. Pedagogik texnologiyaning mezonlari</p> <p style="text-align: center;">Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar.</p> <p>Pedagogik texnologiyalarning asosiy yo‘nalishlari. Ta‘lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Talimni differentsiyalashtirish va individuallashtirish.</p> <p style="text-align: center;">Geografiyani o‘qitishda lokal va xususiy metodik darajada foydalaniladigan texnologiyalar (interfaol metodlar).</p> <p>Pedagogik texnologiyalarning darajalari. Ta‘limni mazmunan yangilash va ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan texnologiyalar. Lokal (modul) metodik darajada qo‘llaniladi texnologiyalar Xususiy metodik darajada qo‘llaniladi texnologiyalar. Interfaol metodlar.</p>				

Geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan foydalanish yo'llari.

Geografiya darslarida o'quvchilarning bilish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish. Didaktik o'yinlarning mazmuni va mohiyati. Didaktik o'yinli darslarga qo'yiladigan talablar. Geografiyani o'qitishda foydalaniladigan, didaktik o'yinli darslarning turlari. Didaktik o'yinli darslarning texnologik xaritasi.

Geografiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va asosiy g'oyasi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlari va ulardan geografiya darslarida foydalanish yo'llari.

Geografiyani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi

Muammoli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Muammoli metodlar. Muammoli darslarga qo'yiladigan didaktik talablar. Geografiyani o'qitishda muammoli darslardan foydalanish yo'llari.

Geografiyani o'qitishda kartografik va loyihalash texnologiyasi

Umumiy kartografik tushunchalar. SHhartli belgilar va ularni o'qish. Geografik atlaslar, globuslar va ularning turlari. Kartalarni tushuntirish texnologiyasi. Geografik kartalarni o'qish texnologiyasi. Kartografik tasavvurlarni shakllantirish texnologiyasi. Loyihalash texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Qisman izlanishli, jodiy, ilmiy-tadqiqot xarakteridagi muammolarni loyihalash yo'llari. O'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish. O'quvchilarning muammolarini hal etish yo'llarini loyihalash ko'nikmalari.

Geografiya ta'limida kreativ metodlar.

Talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish, muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta'limlarning qo'llanishi o'quvchi-talabalarda yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o'sishi

Geografiya darslarida media ta'limi metodi.

Media ta'lim tushunchasi. Media ta'lim rivojlanish tarixi. Media darslarni metodik imkoniyatlari va afzalliklari.

Geografiyada mustaqil ta'lim texnologiyalari yaratish masalalari.

Mustaqil ta'lim – oliy o'quv yurti talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim.

Geografiya o'qitishda Xorij tajriba asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Xorijiy davlatlar tajribasi asosida geografiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Finlandiya tajribasi- STEAM yondashuvi, muammo asosida o'qitish. Singapur tajribasi- PISA kompetensiyalariga yo'naltirilgan o'quv jarayoni. Janubiy Koreya tajribasi- raqamli vositalardan foydalanish va onlayn platformalar. AQSH tajribasi- loyiha asosida o'qitish, interaktiv xaritalar va GIS. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): Google Earth, ArcGIS, mobil ilovalar. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar. Raqamli platformalar (Kahoot, Padlet, Nearpod, Quizizz). Gamifikatsiya va VR/AR texnologiyalari

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari. Innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari
Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

Geografiyani o'qitishda lokal va xususiy metodik darajada foydalaniladigan texnologiyalar (interfaol metodlar).

4. Geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan foydalanish yo'llari
5. Geografiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi
6. Geografiyani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi
7. Geografiyani o'qitishda kartografik texnologiyalar
8. Geografiyani o'qitishda loyihalash texnologiyasi
9. Geografiya ta'limida kreativ metodlar
10. Geografiya ta'limida evristik metod
11. Geografiya darslarida media ta'limi metodi
12. Geografiyada mustaqil ta'lim texnologiyalari yaratish masalalari
13. Geografiya o'qitishda Xorij tajribasi asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriya tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- SWOT tahlili;
- Taqdimot tayyorlash;
- Maruza tayyorlash;
- rasmiy topshiriq tuzish;
- Mo'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videodars tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo'q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> - Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish; - Adabiyotlar ro'yxatini tuzish; - So'rovnoma o'tkazish; <p style="text-align: center;">Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Geografiya ta'limi mazmunining tarkibiy qismlari 2. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bosqichlari 3. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish 4. Geografiya darslarida o'quvchilarning bilish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtirish 5. Ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilgan texnologiyalar. 6. Didaktik o'yinli darslarining texnologik xaritasi. 7. Didaktik maqsadlar majmuasi, xususiy didaktik maqsadlarni aniqlash yo'llari. O'qituvchining tayyorligi 8. Geografiyani o'qitishda foydalaniladigan, didaktik o'yinli darslarning turlari. 9. Muammoli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari 10. Geografiyani o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi 11. Talim jarayonlarini raqamlashtirish asoslari. 12. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar 13. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari 14. Ta'limga oid multimedia va raqamli ta'lim resurslari 15. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p style="text-align: center;">Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talaba bilishi kerak: • Fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini siyosiy tahlil qilish. • Geografiyani o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining asosiy o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, elektron darsliklar virtual stendlar va boshqa materiallardan foydalaniladi. Fanning o'qitish turlari dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. • Geografiyani o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar fani ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan o'z o'rnida samarali foydalana olish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan chiqishning muqobil variantini tanlay olish va uni baholash malakalariga ega bo'lishi kerak
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>ma'ruzalar;</i> • <i>interfaol keys-stadilar;</i> • <i>diologik yondoshuv</i> • <i>SWOT tahlili</i> • <i>Wenn diagrammasi</i> • <i>debat</i> • <i>assiment</i> • <i>baliq skleti</i> • <i>blis test va boshqalar</i>
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri</p>

	aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishini topshirish.
6.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abduvaxidov S.N., Ganiyev Z.A. Geografiya ta'limi metodikasi. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2021.-328 b. 2. X.Vaxobov, N.R.Alimqulov, N.B. Sultanova.Geografiya o'qitish metodikasi [Matn] : darslik - Toshkent: Nodirabegim, 2021. -360 b. 3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari: Maktabgacha, umumiy-o'rta ta'lim, oliy ta'lim va boshqa ta'lim tashkilotlaring pedagog kadrlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan. Toshkent – 2024. 130 bet.. <p style="text-align: center;">IX. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мўминов О. География таълими методикаси. // Педагогика институтлари студентлари учун қўлланма. – 2 тўлдирилган ва қайта ишланган нашри. – Т.: Ўқитувчи, 1986. - 208 б. 2. Мўминов О.А. Замонавий география дарсига қўйиладиган талаблар: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 72 б. 3. Никадамбаева Ҳ.Б. География ўқитиш методикаси. Услубий қўлланма. – Т.: Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ нашриёти, 2018. – 84 б. 4. Никадамбаева Ҳ.Б., Рўзиева Д.И., Карабазов З.А. “Ўрта Осиё табиий географияси”ни интерфаол методлардан фойдаланиб ўқитиш методикаси. – Т.: Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ нашриёти, 2017. – 224 б. 5. Очилов М. Янги педагогик технологиялар / Ўқув қўлланма. – Қарши.: “Насаф” нашриёти, 2000 - 80 б. 6. Пивоварова Г.П. По страницам занимательной географии. – М.: Просвещение, 1990. 7. Розиков О.Р., Огаев С.Ю., Маҳмудова М.М., Адизов Б.Р. Дидактика. – Т.: “Фан” нашриёти, 1997. – 256 б. 8. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Т.: ТДПУ, 2013. 9. Сайидахмедов Н., Абдувоҳидов С. Касб таълими ўқитувчисининг педагогик фаолияти модели. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, , 2014. – 128 б. 10. Хамроева Ф.А Олий таълим муассасаларида табиий географик фанларни ўқитиш методикасини медиатехнологиялар асосида такомиллаштириш.Дисс. автореферати. –Т.: ЎзМУ, 2020.–120 б. 11. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси // География таълими учун ўқув қўлланма. -Урганч.: Хоразм, 2001. – 212 б. <p style="text-align: center;">O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekiston Ryespublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.edu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti 2.

	2. http://www.uzedu.uz - O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi sayti.
	3. http://www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.
	4. https://unilibrary.uz/ - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi
	5. https://library.uzfi.uz/ - Samarqand davlat pedagogika instituti elektron kutubxona axborot tizimi
	6. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar telegram kanali
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "____" _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: F.Xamroyeva - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida dotsenti.
9.	Taqrizchilar: B.Musayev - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida v.v.b dotsenti (ichki) Z.G'aniyev - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti dotsenti (tashqi)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98 o'rinni egallagan Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetning Toshkent filialining (Inovatsion ta'lim jarayonlari) dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

"Geografiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanining dasturi tayyorlanib 2 ta mavzusi yangilandi

<https://msu.uz/2023-04-16-rabochiye-programmy-distsiplin>

https://msu.dvaoblaka.ru/media/2023/04/643bcfa650b8e_6_%20%D0%98%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B5%20%D0%BE%D1%80%D0%BE%D1%86%D0%B5%D1%81%D1%81%D1%8B%20%D0%B2%20%D0%BE%D0%B1%D1%80%D0%B0%D0%B7%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B8.doc

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetning 2025-yil 23-apreldagi 2- sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

F.A.Xamroyeva

Kafedra mudiri:

F.A.Xamroyeva

Fakultet dekani:

N.Mirzayev

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:

H.Musulmonov



**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası dotsenti
F.A.Xamroyeva tomonidan tayyorlangan “Geografiyani o‘qitishda
innovatsion texnologiyalar” o‘quv fan dasturiga**

TAQRIZ

“Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanining o‘quv dasturi geografiya ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini o‘rganish, ulardan dars jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur fan bugungi kunda ta‘lim jarayonini raqamlashtirish, darslarning interaktivligini oshirish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan dasturida innovatsion pedagogik yondashuvlar – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimediali vositalar, interaktiv darslar, geoinformatsion tizimlar (GIS), masofaviy ta‘lim platformalari, raqamli xaritalar va boshqa zamonaviy texnologiyalarning geografiya fanida qo‘llanilishi atroflicha yoritilgan. Talabalar ushbu fan orqali ta‘lim jarayonida zamonaviy vosita va metodlardan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallashadi. Fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy mashg‘ulotlarni ham o‘z ichiga oladi. Har bir mavzu tegishli topshiriqlar, interaktiv mashg‘ulotlar va mustaqil ishlanmalar orqali chuqurlashtirilgan bo‘lib, bu talabalarni mustaqil fikrlovchi, kreativ va zamon talablari darajasida dars o‘tishga tayyor mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fan dasturida ta‘lim jarayonining zamonaviy talablari asosida darslarni loyihalash, elektron resurslar yaratish, mobil ilovalar va vizual dasturlardan foydalanish usullari ham keng qamrovda yoritilgan. Bularning barchasi o‘quv jarayonining sifatini oshirish, fan o‘qitilishini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga mos bo‘lib, 60111000 – Geografiya ta‘lim yo‘nalishi uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Dastur ilmiylik, tizimlilik va innovatsion yondashuv prinsiplari asosida tuzilgan.

**Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrası vvb dotsenti**



B.M.Musayev

**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası dotsenti
F.A.Xamroyeva tomonidan tayyorlangan “Geografiyani o‘qitishda
innovatsion texnologiyalar” o‘quv fan dasturiga**

TAQRIZ

“Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fani – hozirgi davrda geografiyani o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda chuqur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dolzarb fanlardan biridir. Fan dasturida geografiya fanining o‘qitilishi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy interaktiv dars formatlarini ishlab chiqish va ularni tatbiq etish masalalari batafsil yoritilgan.

Dastur orqali talabalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari, ularning geografiya faniga integratsiyasi, shuningdek, interaktiv vositalar, GIS texnologiyalari, elektron darsliklar, raqamli xaritalar, Google Earth, mobil ilovalar va boshqa AKT vositalari bilan ishlashni o‘rganadilar. Bularning barchasi dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni darsga jalb qilish va ularda mustaqil o‘rganish motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Fan dasturida har bir mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va topshiriqlar berilgan bo‘lib, talabalarga o‘rgangan bilimlarini real sharoitda sinab ko‘rish, o‘qitish metodikasini mustahkamlash va o‘ziga xos dars uslublarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, fan o‘qituvchilarni innovatsion dars ishlanmalarini ishlab chiqish, dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yechish va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashga undaydi.

Mazkur fan dasturi 60111000 – Geografiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Dastur zamon talablariga mos tarzda ishlab chiqilgan bo‘lib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası dotsenti:



Z.A.G‘aniyev